



---

**O'ZBEK VA TURK TILLARI LEKSIKASIDAGI FONETIK FARQLAR  
XUSUSIDA**

<https://doi.org/10.5281/zenodo.11105152>

**Xushboqova Xurshida Qo'ldosh qizi**

*TerDU 2-bosqich magistranti*

**ANNOTATSIYA**

Ushbu maqolada til leksikasidagi fonetik birliklarning o'ziga xos jihatlari haqida ma'lumot berilib, turkiy tillar leksikonidagi umumiy hamda xususiy fonetik xususiyatlar o'zbek va turk tillari misolida ochib berilgan. Ikki qardosh til leksikasidagi fonetik o'xshashliklar va ayni damda bitta til oilasiga mansub bo'lishiga qaramay, ayrim farqli xususiyatlari bir qancha misollar yordamida qiyosiy tahlilga tortilgan.

**Kalit so'zlar**

turkiy til, qiyoslash, qardosh til, fonetik birlik, leksika, fonetik-fonologik sath, fonema, unli va undosh fonema, singarmonizm, morfologik tamoyil, fonetik tamoyil.

**АННОТАЦИЯ**

В данной статье представлена информация об особенностях фонетических единиц в лексиконе языка, а также выявлены общие и специфические фонетические особенности в лексиконе тюркских языков на примере узбекского и турецкого языков. Фонетическое сходство в лексике двух родственных языков и несмотря на то, что они принадлежат к одной языковой семье, некоторые их отличительные черты подверглись сравнительному анализу с помощью нескольких примеров.

**Ключевые слова**

турецкий язык, сравнение, родственный язык, фонетическая единица, лексика, фонетико-фонологический уровень, фонема, гласная и согласная фонема, сингармонизм, морфологический принцип, фонетический принцип.

**ABSTRACT**

This article provides information about the specific aspects of phonetic units in the lexicon of the language, and reveals general and specific phonetic features in the lexicon of Turkic languages using the example of the Uzbek and Turkish languages. Phonetic similarities in the lexicon of the two sister languages and despite the fact that they belong to the same language family, some of their



---

distinctive features have been subjected to comparative analysis with the help of several examples.

**Key words**

Turkish language, comparison, sister language, phonetic unit, lexicon, phonetic-phonological level, phoneme, vowel and consonant phoneme, synharmonism, morphological principle, phonetic principle.

Barchamizga ma'lumki, o'zbek tilining ham, shu jumladan, turk tilining ham ildizlari qadimgi turkiy tilga borib taqaladi. Mazkur ikki til ham kelib chiqishi jihatidan bir bobo tildan tarqalgan bo'lsa-da, ikkovining keying davrdagi tarixiy taraqqiyoti, takomili, rivoji bir-biridan farqli ravishda o'zgacha kechgan. Hozirgi o'zbek adabiy tili tarixan Temuriylar davrida Movarounnahr va Xurosonda amalda bo'lgan "Chig'atoy turkchasi" hamda unda keyingi davrlar yozma tili bo'lgan eski o'zbek tili asosida yuzaga kelgan bo'lsa, hozirgi turkiy adabiy tili esa aynan Anado'lida amal qilgan o'guz guruhiga mansub bo'lgan "Usmonli turkchasi" asosida yuzaga kelgan [4,8].

O'zbek va turk tili bir til oilasiga mansub bo'lishiga qaramay ular o'rtasida o'xshash xususiyatlar bilan birga, bir qator farqli jihatlar ham mavjud. Bu ikki til o'rtasidagi eng muhim farqlardan biri shundaki, yuqori nazarda tutilganidek, o'zbek adabiy tili turkiy tillarning qarluq guruhiga oid bo'lsa, turkiy adabiy til esa bu oilaning o'g'uz guruhiga mansubdir. Ikki qardosh til bir til oilasining boshqa-boshqa guruhlariga tegishli bo'lsa-da, ammo bu til shevalarida bir guruhga mansublik holatlarini ko'rishimiz mumkin. Jumladan, o'zbek tilining Xorazm shevalari aynan o'g'uz lahjasiga kirishi, uning turkiy til bilan naqadar yaqinligi va qarluq, qipchoq lahjasini shakllantiruvchi Toshkent, Farg'ona, Samarqand shevalari vakillariga nisbatan Xorazm sheva vakillari turkchani tez va oson tushuna olishini ko'rsatadi.

Ikki qardosh til o'rtasidagi bu kabi farqli xususiyatlarning ayrimlari azaldan mavjud bo'lgan bo'lsa, ayrimlari esa tilning ichki taraqqiyoti tufayli keyingi davrlarda yuzaga kela boshlagan. Bu kabi o'xshashlik va farqliliklar tilning fonetik-fonologik sathida ham bevosita namoyon bo'ladi.

Qiyosiy tilshunoslikda qiyoslanayotgan tillarning tovushlar tizimi - fonetik qurilishi qiyoslashning bosh mezoni bo'lmasa ham, uning eng muhim obyektlaridan biri hisoblanadi, chunki kishilar o'rtasidagi ijtimoiy aloqalaralashuvining asosi bo'lgan so'z nutq tovushlaridan tarkib topadi va ma'no kasb etadi. Til vositasida har qanday ijtimoiy aloqa nutq jarayonida namoyon bo'ladi [3,25]. Mazkur jarayon esa aloqa-aralashuv vakillari hisoblangan turli til egalarida turlicha bo'ladi. Negaki har bir til egasining tovushlarni talaffuz etishi nutq artikulyatsiyasi, ya'ni nutq tovushlarining yuzaga kelish jarayoni tomonidan har xil



yuzaga chiqadi. Bu esa shaxsning fizik, fiziologik xususiyatlari bilan bir qatorda psixik jihatlari bilan ham bog'liq omil hisoblanadi.

Tillarning tarixiy rivojidadagi va ikki til qiyosidagi asosiy farqlar dastlab ularning fonetik-fonologik sathida aks etadi. Shu jumladan, qiyoslanayotgan ikki til: o'zbek va turk tillari o'rtasida fonetik jihatdan bir qator farqli xususiyatlar mavjud bo'lib, ularning eng asosiy jihatlariga to'xtalib o'tamiz.

Eng avvalo, o'zbek va turk tillari fonemalar, ya'ni tovushlar miqdori jihatidan bir xil (ikki til alifbosida ham 29 ta fonema mavjud) bo'lsa-da, unli fonema miqdori va xususiyatlari jihatidan bir-biridan keskin farq qiladi. Negaki, o'zbek adabiy tilida olti unli fonema qabul qilingan, turkiy adabiy tilida esa ularning soni sakkiztadir. Bu borada shuni ta'kidlash joizki, o'zbek shevalarida bir qator unli fonemlar mavjud bo'lib, ularning ayrimlarida unli fonemalarning miqdori o'ndan ziyoddir. Hozirgi o'zbek adabiy tili alifbosida oltita unli tovush qabul qilingan bo'lishiga qaramay, talaffuzda va shevalarda qolgan unli fonemalarning o'rnini ancha sezilib turadi. Binobarin, *qara, qari, qattiq* kabi so'zlarda o'zbek adabiy tilida old qator unli hisoblangan *a, i* unli fonemalari talaffuzda orqa qator unli sifatida aytiladi: *qara, qari, qattiq* kabi. *Tilak, bilak* kabi so'zlarda esa *a* tovushi aynan o'z holicha, ya'ni old qator unli sifatida yumshoq talaffuz etiladi: *tilâk, bilâk*. Shu bilan birga *qo'l, qo'r* so'zlaridagi o' tovushi bilan *ko'l, ko'r* so'zlaridagi o' tovushi talaffuz qilinishi bilan bir-biridan farq qiladi. Dastlabki so'zlarda bu tovush orqa qator qattiq (*qol, qor*) unli sifatida aytilsa, keyingi so'zlar juftligida esa old qator yumshoq (*qöl, kör*) unli sifatida talaffuz etiladi [4,9]. Mazkur holat esa turk adabiy tilida mavjud unli fonemalarning ayrimlari o'zbek alifbosida mavjud bo'lmasa-da, talaffuzda va shevalarda saqlanib qolingani ko'rsatadi.

Shuningdek, bu ikki adabiy til **singarmonizm** qonuniyatlari (unlilar uyg'unlashuvi) jihatidan bir-biridan tubdan farq qiladi. Ko'p bo'g'inli so'zlar tarkibidagi unli tovushlarning bir-biriga uyg'unlashuvi turkiy tillarda tarixiy hodisa bo'lib, tarixiy manbalarga ko'ra qadimgi turkiy tilda ham so'zning birinchi bo'ginidagi unli fonemalarning sifatiga ko'ra keyingi bo'g'indagi unli fonemalarning asl qanday bo'lishiga qaramasdan o'z qiyofasini o'zgartirgan, sifat jihatidan birinchi bo'g'indagi unli tovushga moslashgan [3,35]. Bu hodisa esa unli tovushlar uyg'unligi, ya'ni singarmonizm, turk tilida esa **Ünlü Uyumu** deb yuritiladi. Biroq hozirgi o'zbek adabiy tilida singarmonizm qonuniyatiga ko'p o'rinda amal qilinmaydi (ayrim shevalardan tashqari), ammo singarmonizm hodisasi hozirgi turkiy adabiy tilida anchagina yetakchi o'rinda turadi. Negaki, turk tilidagi 8 ta unli fonema ikki guruhga: qalin (*kalın ünlüler: a, ı, o, u*) va yumshoq (*ince ünlüler: e, i, ö, ü*) unli fonemalarga bo'linganligi unli fonemalarning moslashuvining ustuvor ekanligini ko'rsatadi. Aynan turk tili misolida singarmonizmning ikkita ko'rinishini *büyük ünlü uyumu* hamda *küçük ünlü uyumu* ni ko'rishimiz mumkin. Singarmonizmning birinchi turi turkiy adabiy



tilning eng muhim xususiyatlaridan biri hisoblanadi. Bir soʻzdagi va soʻz bilan qoʻshimchadagi unlilarning qalinlik-yumshoqlik jihatidan bir-biriga uygʻun boʻlishi, yaʼni soʻzning birinchi boʻgʻinidagi unli qalin boʻlsa, keyingi bogʻinlaridagi unlilar ham qalin, yoki aksincha, yumshoq boʻlsa, keyingi boʻgʻinidagi unlilar ham shunga binoan yumshoq boʻlishi *büyük ünlü uyumu* ni yuzaga keltiradi. Turk tilidagi singarmonizmning bu turi haqida quyidagi jadvalda batafsil keltirilgan:

1-jadval

<b>Büyük ünlü uyumu</b>		
<i>Kalınlik uyumu (qalinligiga koʻra uygʻunlashishi)</i>		
Birinchi boʻgʻinda	Keyingi bogʻinlarda	Misollar
a dan keyin	a, ı yoki ı, a	Akşam (oqshom), altın (oltin)
ı dan keyin	a, ı yoki ı, a	Karanlık (qorongʻu), ılık (iliq)
o dan keyin	a, u yoki u, a	Oğlan (bola), doğu (sharq)
u dan keyin	a, u yoki u, a	Dudak (dudoq, lab), uyku (uyqu)
<b>İncelik uyumu (yumshoqligiga koʻra uygʻunlashishi)</b>		
Birinchi boʻgʻinda	Keyingi bogʻinlarda	Misollar
e dan keyin	e, i yoki i, e	Kelebek (kapalak), deneyim (tajriba)
i dan keyin	e, i yoki i, e	Çiftçi (dehqon), bilezik (bilaguzuk)
ö dan keyin	e, ü yoki ü, e	Önem (muhim), görüntü (koʻrinish)
ü dan keyin	e, ü yoki ü, e	Yüzük (uzuk), ünlem (undov)

Yuqorida koʻrib turganingizdek, unlilar garmoniyasi turk tilining asosiy xususiyatlaridan hisoblanadi va tilning ohangdorligini taʼminlashga xizmat qiladi. Ammo hozirgi oʻzbek adabiy tilida singarmonizmning mavjud emasligi, uning turk tili bilan farqli xususiyatlari borligini hamda oʻzbek adabiy tilining singarmonizmlashmagan oʻzbek dialektlari asosida tarkib topganligini ham koʻrsatadi.

Ikki qardosh tilning yana bir muhim farqi shundaki, hoziri oʻzbek adabiy tili imlosida bevosita *morfologik tamoyil* ustunlik qilsa, hozirgi turkiy adabiy tilida esa *fonetik prinsip* yetakchilik qiladi [4,10]. Misol uchun, orfoepik nuqtayi nazardan *bordi, keldi, ketti, aytti, yetti, qochti* deb talaffuz qilsak-da, orfografik jihatdan bu soʻzlardagi oʻtgan zamon -di qoʻshimchasi bir xil shaklda yoziladi: *bordi, keldi, ketdi, aytdi, yetdi, qochdi* kabi. Ammo turkiy adabiy tilida esa eski oʻzbek tilida mavjud boʻlgani kabi qanday talaffuz qilinsa, yozuvda ham xuddi shunday *vardi, geldi, gitti, yetti, kaçtı* kabi yozilishi bevosita yuqoridagi fikrimizni tasdiqlaydi.

Bulardan tashqari, oʻzbek va turk tillari leksikasida bir qator fonetik jihatdan farqliliklar mavjud. Misol uchun, hozirgi turkiy adabiy tili alifbosida oʻzbek tilida bor boʻlganidek, *q va x* undoshlari mavjud emas. Yaʼni turk tili leksikasida *q*



tovushi bilan ifodalanadigan biror-bir soʻz yoʻq, oʻzbek tilidagi chuqur til orqa undoshi x turk tilida boʻgʻiz undoshi boʻlgan h bilan ifodalanadi va bu soʻzlar yumshoq holatda talaffuz etiladi: *xabar – haber*.

Soʻz boshida oʻzbek tilida jarangsiz til orqa tovushi k bilan ifodalangan soʻzlar turk tilida jarangli g tovushi shaklida aytiladi va shu tarzda yoziladi: *kun – gün, koʻk – gök, kuz – güz, koʻz – göz, koʻl – göl, kel – gel, ket – git* kabi;

Oʻzbek soʻzlardagi soʻz boshida kelgan m tovushi oʻrnida esa koʻpincha turk tilida b undoshi qoʻllaniladi. Jumladan, *men – ben, minmoq – binmek, ming – bin, million – billion* kabi bir qator soʻzlarda aynan yozuvda ham, talaffuzda ham b tovushiga aylanganini koʻrishimiz mumkin;

Shuningdek, oʻzbek tilida jarangsiz til oldi undoshi t qoʻllanilgan soʻzlarning turkiy adabiy tilda jarangli til oldi undoshi d hoida ifodalanishi ham koʻzga tashlanadi: *til – dil, tor – dar, togʻ – dağ, toʻgʻri – doğru, tish – diş, tuzdi – düzdü, toʻqqiz – dokuz* kabi.

Oʻzbek tilida mavjud til orqa jarangli sonor tovushi boʻlgan ng undoshining oʻrnida esa turk adabiy tilida n tovushi qoʻllaniladi. Misol uchun, *koʻngil – gönül, dengiz – deniz, sening – senin, uning – onun, ming – bin, kelsangiz – gelseniz* kabi soʻzlarda ng tovushining oʻrniga n tovushi ifodalanayotganligining guvohi boʻlishimiz mumkin. Ammo bu sonor tovush ng turk tilida umuman isteʼmoldan chiqib ketdi degani emas. Mazkur tovush ayrim turk shevalarida saqlab qolingan.

Ikki qardosh til leksikasidagi fonetik tafovutlarni qoʻsh undosh bilan ifodalanadigan soʻzlar misolida ham koʻrishimiz mumkin. oʻzbek adabiy tilida qoʻsh undosh bilan aytiladigan ayrim soʻzlar, jumladan, son soʻz turkumiga oid leksemalar turk tilida qoʻsh undosh tarzida emas, bir undosh holatida talaffuz etiladi va shunday yoziladi: *ikki – iki, yetti – yedi, sakkiz – sekiz, toʻqqiz – dokuz, oʻttiz – otuz* kabi.

Bundan tashqari, oʻzbek tilida oxirida undosh bilan ifodalangan soʻzlarning oxirgi tovushi turkchada tushib qolish oʻrinlari ham mavjud. Jumladan, *sariq – sarı, achchiq – acı, qattiq – katı* kabi soʻzlar oxiridagi q chuqur til orqa undoshining turkcha soʻzlarda tushib qolishi turk alifbosida q undoshining mavjud emasligi bilan ham, shuningdek, tarixiy taraqqiyot natijasi sifatida ham baholashimiz mumkin. Aynan qadimgi turkiy tilda eshik maʼnosini ifodalangan *kapık* soʻzining hozirgi turkiy adabiy tilda *kapı* shaklida qoʻllanilishi tarixiy taraqqiyot natijasida yuzaga kelgan deb hisoblasak boʻladi.

Ikki til leksikasining fonetik farqlaridan yana biri shuki, ayrim soʻzlar, jumladan, *boʻlmoq* feʼli turk tilida birinchi tovush b undoshi tushirilgan holda *olmak* shaklida aytilishi va shu kabi yozilishidir. Oʻzbek tilidagi *hovuch* soʻzi ham turkchada *avuç* tarzida ifodalanishi ham yuqoridagi fikrning tasdigʻidir: *bir hovuch bodom yedim – bir avuç badem yedim*.





Shuningdek, o'zbek tilida g' tovushi bilan boshlanadigan bir qator so'zlar mavjud bo'lsa-da, turk tilida biror bir sz g' tovushi bilan boshlanmaydi hamda bu tovush qaysi unlilar bilan yonma-yon kelishiga qarab g' yoki y holatida talaffuz etiladi yoki umuman talaffuzda tushib qoladi. Jumladan, a, ı, o, u, ö unlisidan keyin kelgan g' tovushi talaffuzda ba'zan bilinar-bilinmas aytilsa, ba'zan talaffuz etilmaydi: ağaç (daraxt) – [a: aç], öğretmen (o'qituvchi) – [ö: retmen] kabi. Biroq e, i, ü harflaridan so'ng kelsa, y holida talaffuz etiladi: iğne (igna) – [iyne], düğün (to'y) – [duyun].

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, bir til oilasiga mansub bo'lgan o'zbek va turk tillari leksikasida fonetik tomondan o'xshashliklar bilan bir qatorda yuqoridagi kabi bir qancha tafovutlarni ko'rishimiz mumkin. Bu kabi farqliliklar esa ikki tilning tarixiy taraqqiyot bosqichi va o'zaro ichki fonetik xususiyatlari bilan bevosita bo'g'liq.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Xudoyberganova Z, Hamidov X. Turk tilining nazariy grammatikasi [Matn] : o'quv qo'llanma. – Toshkent: Tafakkur Bo'stoni, 2015, – 320 b.
2. Shabanov J, Hamidov X. Turk tilining imlo qoidalari [Matn] : o'quv qo'llanma. – Toshkent, 2010, – 87 b.
3. Абдурасулов Ё. Туркий тилларнинг қиёсий-тарихий грамматикаси. –Тошкент: Фан, 2009, – 257 b.
4. Содиков Қ, Ҳамидов Х, Худойберганова З, Аминов Л. Турк тили [Matn]: ўқув қўлланма. – Тошкент, – Б. 8.
5. Leontiç Mariya. Standart türk dilinin yumuşaklığı ve ahenkliliği. - İstanbul, 2012.